



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ZULLISONAYNLIK ADABIY AN'ANASINING TADRIJIY TARAQQIYOTI VA MULAMMA'

Rasulova Nigora Kurbonovna,

SamDU filologiya fakulteti o'zbek adabiyoti yo'nalishi tayanch doktranti

rasulovan1985@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183717>

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida zullisonaynlik an'anasining vujudga kelishi, tarjima adabiyotining rivojlanishi va she'riyatda mulamma' usulining shakllanishi xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar, o'zaro yaqinlik, birodarlik rishtalaridan darak beradi. Mazkur maqolada ikki tilda ijod qiluvchi ijodkorlar, ular tomonidan yaratilgan go'zal asarlar hamda shir-u shakar usulida yaratilgan asarlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Zullisonaynlik, mulamma', badiiy adabiyot, tatabbu, "shir-u shakar", "shahd-u shakar" mulamma'lar, tajrijiy taraqqiyot.

O'zbek xalqi boy adabiy merosga ega xalqlardan biridir. Ota-bobolarimiz yaratgan boy og'zaki va yozma adabiyot namunalarini bilish va o'rganish har bir o'quvchining, shu zaminda yashayotgan kishining burchidir. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zining qator suhbatlari va nutqlarida buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'rganishning ahamiyatini qayta-qayta ta'kidlab kelmoqdalar. Badiiy adabiyot taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Tarixdan ma'lumki, adabiyotga oshno, san'atsevar hukmdorlar badiiy adabiyotni qadrlab, uning rivoji uchun munosib hissa qo'shganlar. Bunga yorqin misol sifatida qoraxoniylar davri adabiyoti, temuriylar davri adabiyoti, keyinchalik Qo'qon adabiy muhiti adabiyotini, shuningdek, Muhammad Rahimxon Soniy davridagi Xorazm adabiyotini aytilish mumkin.

Tarixning guvohlik berishicha, X-XII asrlar Sharq madaniyatida ilk Uyg'onish davri sifatida tilga olinadi. Bu davrda barcha sohalarda yuksak taraqqiyotga erishilganini yaxshi bilamiz. Ayniqsa, badiiy adabiyot keng rivoj topib, uch tilda: arab, fors-tojik va turkiy tilda ijod qilish, badiiy asarlar yaratish asosiy an'anaga aylandi. She'riy janrlar: qasida, vaf, hajv, marsiya, masnaviy, g'azal, urjuza janrlari rivoj topdi. Bu davrlarda zullisonaynlik an'anasi rivoj topdi. Masalan, asli balxlik bo'lgan Jaloliddin Rumiy Kichik Osiyoga borib fors-tojik tilidagina emas, balki turk tilida ham asarlar yaratadi. Husomiddin Osimiy fors-tojik tilida, turkiy tilda va arab tilida ijod etadi. Muhammad as-Samarqandiy esa to'rt tilni-turkiy, fors-tojik, arab va mo'g'ul tillarini mukammal bilgan. Bu davrda mulamma'-shiru shakar (ikki yoki undan ortiq tilda asar bitish) usuli taraqqiy etadi. Masalan, shoir Purbahoyi Jomiy misralari uch tilda - turkiy, fors-tojik va mo'g'ul tillarida bitilgan qasida yozadi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XIV asrning oxiri va XV asrning o'rtalarida arab tili qisman fan tili sanalib qoldi. Ilm va badiiy adabiyot asosan turkiy va forsiy tillarda yaratildi, ularning mavqeyi yuksaldi. Bu davrda turkiy va forsiy tillarda ijod qiluvchi shoirlar maydonga chiqdi. XIV asr o'zbek adabiyoti vakillaridan biri bo'lmish Xorazmiy ham fors va turkiy tillarda ijod qilgan. Xorazmiy o'zining "Muhabbatnoma" asarini ikki tilda yozgan. 4-8-11-nomalar fors-tojik tilida yozilgan bo'lsa, qolgan sakkizta noma o'zbek tilidadir.

Xorazmiyning o'zi masnaviysida:

Qiloyin ikki bobbin porsiy ham,

Kim atlas to'n yaroshur bo'lsa mu'lam , - [4, 101] deydi.

XIV asrning oxiri XV asr boshlarida yashab ijod etgan shoir Haydar Xorazmiy ham ikki tilda she'rlar yozgan. Ammo, she'rlari bizgacha to'liq yetib kelmagan.

XV asr o'rtalariga kelib Mir Alisher Navoiy turkiy she'rlariga "Navoiy", forsiy she'rlariga "Foniy" taxalluslarini qo'llab ijod eta boshladi. Navoiy Sa'diy, Hofiz kabi fors adabiyotining ulkan namoyandalari g'azallariga tatabbu' bog'ladi. *Bu tatabbu'larda rind, boda, soqiy, piri mug'on, dayr, xirqa, voiz, muhtasib kabi Hofiz g'azallariga xos bo'lgan obrz va timsollar imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan. [5,335]*

Tatabbu'- bu o'ziga xos ijodiy musobaqa, mashhur asar mavzuyi va shaklini saqlagan holda, uni mazmunan rivojlantirish, yangi g'oyalar, fikrlar, adabiy san'atlar orqali to'ldirib, yangi ruhdagi asarni vujudga keltirish, o'z san'ati, mahoratini namoyish etish, ijodkor sifatida o'z qarashlarinuzamon o'quvchilariga yetkazish vositasi edi. [2, 63]

Xullas, ikki tilda ijod qilish o'ziga xos an'anaga aylandi. Hattoki XI asrda yaratilgan Saolibiyning "Yatimat ud-dahr" tazkirasida 119 ta zullisonayn shoir haqida ma'lumot berilgan. Bundan ko'rinadiki, ikki tilni mukammal o'zlashtirish juda muhim bo'lgan.

Bu davrlarga kelib tarjima adabiyoti ham rivoj topdi. Qutb Xorazmiy Nizomiyning "Xusrav va Shirin" asarini, Haydar Xorazmiy "Maxzan-ul asror"ni, Ma'sud ibn Ahmad Sa'diyning "Bo'ston" asarini, S.Saroy "Guliston" asarini tarjima qildi. Bu jarayonlar o'zbek adabiyotida tarjima san'atining rivoji uchun zamin bo'ldi.

XVII asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan So'fiy Olloyor, shu davrda yashab ijod qilgan otashnafas shoir Boborahim Mashrab ham ikki tilda ijod qilgan zullisonayn shoirlar sanaladi. So'fiy Olloyorning fors-tojik tilidagi lirik merosi haqida so'z ketar ekan, uning o'zbek tilidagi ijodi kabi mahorat bilan ijod qilganligini ta'kidlab o'tish joiz:



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Chand harfi turo kunam izhor,

Az aqovili So'fiy Olloyor. [1, 37]

Mashrab ijodida ham turkiy, ham forsiy tilda yozilgan g'azallar uchraydi:

Mendin salome ba so'yi jonon,

Ey bod, etkur arzi g'aribon [3, 133]

Zullisonaynlik xalqlar do'stligi va adabiyotlar hamkorligini mustahkamlovchi yaxshi an'ana sanaladi. Zullisonaynlik an'anasini Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari munosib davom ettirdilar. Fazliy, Ado, G'oziy, Akmal, Maxmur, Gulxaniy, Nodir-Uzlat, Nodira, Uvaysiy, Dilshodi Barno kabilar ikki tilda go'zal asarlar yaratib, o'zbek adabiyotida mulamma' rivojiga ham munosib hissa qo'sha oldilar. Qo'qon adabiy muhitining asoschisi, "Amiriy" taxallusi bilan ijod qilgan Umarxon ham turkiy va forsiy tilda birdek mahorat bilan ijod qilgan. Shuningdek, Xorazm ijodkorlaridan Munis va Ogahiy ijodida ham zullisonaynlik ko'zga tashlanadi. Ogahiy tarjima borasida ham ulkan natijalarga erishdi. Bu davrlarda an'anaviy shir-u shakar usulida musaddas, mustazod va tarje'bandlarning go'zal namunalari yaratildi. Ayniqsa, G'oziy qalamiga mansub "Ey sho'xi sumanbari shakarlab" misrasi bilan boshlanuvchi tarje'band mulamma' usulining go'zal namunasi. Bir vaznda, bir mavzuda ikki tilda asar yaratish ijodkordan katta mahorat tilab qiladi. Ikki til imkoniyatlarini to'liq o'zlashtirish olgan ijodkorlarga original asar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'zbek adabiyoti ana shunday zullisonaynlik hisobiga ham sayqallanib bordi. Tarjima san'ati rivoj topib, durdona asarlar tilimizga tarjima qilindi. Ijodkorlar o'z mahoratlarini namoyish qilish maqsadida ikki tilda mulamma' asarlar yaratdilar. Bu kabi asarlarni o'qib o'rganish, lug'atlar yordamida mag'zini chaqish siz-u bizning burchimizdir.

Zero, ajdodlarning boy adabiy merosini o'rganish, undan qonib-qonib bahra olish va bizdan keyingi avlodga yanada boyitib yetkazish har birimizning yelkamizdagi muhim mas'uliyatimizdir.

Bugungi kunda ikki va undan ortiq tilni bilish nafaqat individual o'sish, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p tilli insonlar xalqaro maydonda faoliyat yuritish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va turli madaniyatlarni o'zaro bog'lashda asosiy rol o'ynaydi.



XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоева Мохигул. Сўфий Оллоҳёрнинг маънавий қарашлари. "Сангзор" нашриёти, 2010.
2. Комидов Нажмиддин. Фақр нури порлаган қалб: (Алишер Навоийнинг форсий қасидалари). -Т.: "Маънавият", 2001.
3. Машраб. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи А. Абдуғофуров. Т., Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1971.
4. Насимхон Рахмон. Ўзбек мумтоз адабиёти. Т.: "Фан" нашриёти. 2007.
5. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik /darslik. - Т.: "Tamaddun", 2019.